

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA LEKSIK ANTONIMLAR**Yuldasheva Nafisa Maxmud qizi***ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi**1-bosqich magistratura talabasi*yuldashevanafisa55@gmail.com

Annotatsiya: maqolada antonimlar va ularning turlari haqida va shu jumladan, eng ko‘p qo‘llaniluvchi leksik antonimlar haqida ma‘lumot beriladi. Leksik antonimlar va ularning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari haqida fikr yuritiladi. Mavzu yuzasidan berilgan fikrlar roman materiallari asosida isbotlanadi. Romandagi leksik antonimlarning faolligi muayyan jihatlari alohida qayd etiladi. Leksik antonimlarning deyarli har biri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi, sharhlanadi, sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: *antonim, leksik antonim, o‘ziga xosliklar.*

Dunyo yaralibdiki, u qarama-qarshi munosabatlardan iboratdir. Ya‘ni olamdagi butun hodisalar o‘rtasida ziddiyat mavjuddir. Falsafiy nuqtai nazardan olib qaraganda ham har qanday hodisani o‘rganishda uning qarama-qarshi tamoni ham katta ahamiyatga egadir. Antonimlar yordamida so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yanada ravshanlashadi, bu esa nutq jarayonida mantiqiy tuzilishni ta‘minlaydi. Antonimlar (zid ma‘noli so‘zlar) – grekcha anti – „zid“, „qarama-qarshi“ onoma yoki onyma – „nom“ degani bo‘lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar, ya‘ni ma‘nosi bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar antonim deyiladi. Antonimlar ko‘plab tillarda keng qo‘llaniladi. Ular asarlar, she‘rlar va boshqa adabiyotlarda ko‘plab misollar bilan tasdiqlangan. Antonimlar nutq jarayonida keng ishlatilib, rang-barang tushunchalarni ifodalash uchun qulay vositalardir. A.A.Reformatskiyning fikricha, ular kuchli, katta ahamiyatga ega bo‘lgan stilistik vositalardir. Antonimlarni o‘rinli ishlata bilish nutqning rang-barangligini, o‘tkirliги, ifodaliligi va ta‘sirchanligini oshiradi. So‘zlarning sinonim va antonimlarini bilish, so‘zlarning turli ma‘nolarini aniqlashga yordam beradi¹¹². Antonimlar yordamida mualliflar o‘z fikrlarini yanada kuchli va qiziqarli tarzda ifodalaydilar. Bunday usullar orqali o‘quvchining e‘tiborini jalb qilish va ularni fikr yuritishga undashi mumkin. Antonimlar nutqda aniq fikrlarni taqdim etishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida fikrlarni ta‘kidlash va muayyan nuqtai nazarni aniq ifodalash mumkin. Dunyoda hamma narsa juftlik prinsipiga asoslanganligi ma‘lum. Juftlik borligi uchun dunyoda taraqqiyot bor. Lekin har

¹¹² Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent, 2009, 98-101-betlar

qanday juftlik ham taraqqiyot, rivojlanishning asosi bo‘la olmaydi. Faqat bir-birini bir vaqtning o‘zida ham inkor qiladigan, ham taqozo qiladigan juftlikka rivojlanish va muvozanat asosi bo‘la oladi. Antonim so‘zlar tilning leksik yarusidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasidir¹¹³. Shu asnoda antonimlarning ham ma’no-munosabatiga ko‘ra bir qancha turlari mavjud. Bular:

- 1) Leksik antonimlar
- 2) Grammatik antonimlar
- 3) Kontekstual antonimlar

Leksik antonimlar – bu lug‘aviy jihatdan bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘z juftliklaridir. Ular grammatik shakl emas, balki so‘zning ma’nosi asosida qarama-qarshilikni hosil qiladi.

Grammatik antonimlar – bu tilshunoslikda bir-biriga grammatik jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan birliklardir. Ular asosan grammatik shakllar yoki kategoriyalar orqali ifodalanadi. Leksik antonimlar so‘zlarning ma’nosi asosida qarama-qarshi bo‘lsa, grammatik antonimlar grammatik shakl orqali farqlanadi. Kontekstual antonimlar – bu so‘zlarning doimiy (lug‘aviy) antonimi emas, balki muayyan matn yoki nutq kontekstida bir-biriga qarama-qarshi ma’no kasb etadigan juftliklardir.

Leksik antonimlarning xususiyatlari:

1. Qarama-qarshi tushunchalarni bildiradi: Masalan, oq-qora, issiq-sovuq, do‘st-dushman

2. Bir xil so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Odatda sifatlar, fe‘llar va otlar orasida antonimlik sodir bo‘ladi. Asosan, sifat so‘z turkumi doirasidagi antonimlik ko‘plikni tashkil qiladi.

- Sifat: Katta- kichik, baland-past, uzun-qisqa
- Fe‘l: kelmoq-ketmoq;
- Ot: do‘st-dushman

3. Qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi gaplarda ishlatiladi: Misol: Yaxshi odam, yomon ishga qo‘l urmaydi.

Leksik antonimlarning badiiy asarlarda qo‘llanishi ularning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan bu maqolamizda biz Abdulla Qodiriyning O‘tkan kunlar romanidagi leksik antonimlarga to‘xtaldik. O‘tkan kunlar romanidagi leksik antonimlar so‘z turkumi nuqtayi nazaridan 3ta guruhni hosil qiladi. Bular: sifat antonimlar, ot antonimlar, fe‘l antonimlar

¹¹³ Mo‘yidinov Q, Ikramov R. Tilshunoslik asoslari.-Toshkent, 2025, 64-bet

Sifat turkumiga oid leksik antonimlar:

1. Katta-kichik.(bu hajm nuqtayi nazaridan hosil qilingan antonimlar) Ho‘l-u quruq deganlaridek, **katta-kichik** yonmoqqa oldi. (O‘tkan kunlar romani 118-bet)
2. Ichkari-tashqari. Endi biz **tashqari** hovlini qo‘yib mehmonxonaning yonidan **ichkariga** kiramiz. (O‘tkan kunlar romani 30-bet)
3. O‘ng-chap. Ichkari havlining yo‘lagi ham narigisidek usti va bag‘ri yopiq- qorong‘u, yo‘lakning nihoyatiga borib **o‘ngga** yurilsa- axtaxona, **chapga** yurilsa- birinchi maraba kirganimizdek – ulug‘ bir havliga chiqarmiz. (O‘tkan kunlar romani 30-bet)
4. Oq-qora. Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan **oq** nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan **qora** xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o‘lturdi. (O‘tkan kunlar romani 31-bet)
5. Sovuq-issiq. Kumushbibi bir necha kundan beri **sovuq** havo tegdirib, bosh og‘rishi va ko‘z tinishka o‘xshash og‘rig‘lardan shikoyat qilib yurar, shuning uchun onasi: “Tinch uxlasin, ortiq urinmasin”, – deb bu kun namozga ham uyg‘otmagan edi. Kumush kiyinib uydin chiqdi, To‘ybeka tomonidan hozirlanib berilgan **issiq** suv bilan yuzini yuvdi. (O‘tkan kunlar romani 31-bet)
6. O‘ng-ters. Nax siz yosh mehmonni ko‘rmabsiz, dunyog‘a kelmabsiz, – dedi To‘ybeka **o‘ng-u ters** osh chaynab. (O‘tkan kunlar romani 34-bet)
7. Ochiq-yopiq. Do‘konlar **yopiq** bo‘lsalar ham choyxonalar **ochiq**, kishilar o‘rtaga gulxan solib, choyxonachining bachchasini gohi o‘zlariga xon ko‘tarib va gohi “xon qizi” deb ham qo‘yadirlar. (O‘tkan kunlar romani 42-bet)
8. Yosh-keksa. Hudaychi Azizbekdan ilgariroqda qo‘riqchilarni ogohlantirib borar, miltiq, shashvar tutkan **yosh** va **keksa** muhofizlar uni salomlab qarshi olar edilar. (O‘tkan kunlar romani 94-bet)
9. Dardmand-sog‘. Qanday **dardmandlik**, Otabek **sog‘**-ku. (O‘tkan kunlar romani 43-bet)
10. Xursand-xafa. Otabek tusida **xursand** va **xafaligi** majhul bir holat bor edi. (O‘tkan kunlar romani 53-bet)
11. Quyuq-suyuq. Qutidorning tashqarisig‘a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to‘lg‘anlar, ular **quyuq**, **suyuq** oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. (O‘tkan kunlar romani 56-bet)
12. O‘ng-ters. Bu ikki turlik masalalarning **o‘ng-tersini** aylandirib muhokama qildi va o‘lchadi. (O‘tkan kunlar romani 26-bet)
13. Uzun-kalta.To‘la ko‘rkam yuzlik, katta malla ko‘zlik, **uzun** mosh-guruch soqollik mullanamo bir zot bo‘lib, bu kishi yaroqsiz edi. Zangori movutdan tizzagacha tushkan **kalta**

kamzul, qizil movutdan shim, oyog‘ida sag‘ri etik kiygan har qatorda to‘rttadan otlq kelmoqda edilar. (O‘tkan kunlar romani 90-bet)

14. Yosh-keksa. Xon saylag‘uchilar orasida **yosh** yigitlar bor bo‘lg‘anidek katta sallalik mullanamolar, yetmish yoshliq **keksalar** ham ko‘rinadirlar...(O‘tkan kunlar romani 42-bet)

15. Yaxshi-yomon. Tushundirsak, tag‘in **yaxshi**. Masalaning bu tomoni ham Homid uchun **yomon** edi. (O‘tkan kunlar romani 103-bet)

16. Yorug‘-qorong‘u. Azizbek ko‘ziga hozir **yorug‘** dunyo **qorong‘u**, bu qorong‘ulik ichida boyag‘i shirin xayollar ko‘rinar edi. (O‘tkan kunlar romani 114-bet)

17. Ho‘l- quruq. **Ho‘l-u quruq** deganlaridek katta-kichik barobar yonmoqqa oldi. (O‘tkan kunlar romani 118-bet)

18. Xursand-xafa. Otabek tusida **xursand** va **xafaligi** majhul bir holat bor edi. O‘tkan kunlar romani 53-bet)

19. Yuqori-quyi. Qo‘rg‘onning qo‘ruq o‘rnidagi qahramonlar harakatka keldilar, **yuqori** qo‘ruqdan bir pog‘ona **quyig‘a** tushib saf- yasov tortdilar. (O‘tkan kunlar romani 89-bet)

20. Xoin- sodiq. Ko‘nglim davlat **xoinlari** qo‘rqinchidan titragan bir holda qalam tebrataman. Davlatning **sodiq** bir fuqarosi, ixloslik bir yigiti davlat ustiga o‘zining mudhish zarbasini tashlab turg‘an bir badahd o‘g‘lini o‘shandog‘ki otasining vakolati birlan ikkinchi bir tinch, ulug‘larga mute.....(O‘tkan kunlar romani 126-bet)

Qorong‘u-yorug‘. Buxoro zindonlaridan birini his etilur va **qorong‘u** yo‘lakning nihoyatidagi **yorug‘likka** tomon oshiqilur. (O‘tkan kunlar romani 29-bet)

Ot so‘z turkumi doirasida hosil bo‘lgan leksik antonimlar:

1. Kulgu-xomushlik. Hasanalining sinashi nihoyatiga yetkandek bo‘ldi, hatto, yuqoridag‘i javobni eshitkan vaqtida nima uchundir o‘zini bir turlik **kulgidan** arang to‘xtatib qolg‘an edi. Yana o‘rtada **xomushlik** hukm surib, Hasanali ishni tuzikroq ochish va yo shu ko‘yi qoldirib ketaberish talashida edi.

2. Issig‘liq-sovug‘liq. Qutidor uning bu aytgan gapidan emas, kulishidan nihoyat darajada qo‘rquvga tushib o‘zida **issiqlik**, **sovug‘liq** bir holat his etgan edi. (O‘tkan kunlar romani 80-bet)

3. Kun chiqar-kun botar. Havlining **kun chiqarida kun botishig‘a** qaratib soling‘an, uncha maxtarlik bo‘lmasa ham, ammo zamonining olding‘i binolaridan hisoblang‘an bir ayvon bilan bir uyga ko‘z tushadir. (O‘tkan kunlar romani 27-bet)

4. Shodlik-qayg‘u. Kumushbibu uchun dunyoga sig‘masliq bir **shodliqning**, ko‘rguchi ko‘zlariga ishona olmasliq bir baxtning bu gal ko‘tarib bo‘lmayturg‘an bir **qayg‘u** chidab bo‘lmayturg‘an bir hasrat edi.(O‘tkan kunlar romani 150-bet)

5. Ost-ust. Qo‘rg‘on **ost**larida jahannam dahshati bilan yalang‘och, boshi tanidan olinib qora qonig‘a belangan odan gavdalari yotib, qo‘rg‘on **ust**ida ikkinchi kishilar dunyo shodlig‘i ichida suzadirlar. (O‘tkan kunlar romani 86-bet)

6. Do‘st-dushman. Musulmonqul janobidek bir bahodirdan andisha qilmay uning **dushman**larini sarfarozi aylab **do‘st**larini g‘amgin qiladirlar. (O‘tkan kunlar romani 126-bet)

7. Tinchlik-janjal. Uyingizda har kuni **janjal**, bir daqiqa **tinchlig**‘ingiz yo‘q. (O‘tkan kunlar romani 12-bet)

Fe‘l so‘z turkumi doirasidagi antonimlar

1. Kulmoq-yig‘lamoq. Erlar so‘yinganda **kuls**alar sizga o‘xshash qizlar yig‘laydirlar, sizning **yig‘lag**aningiz- quvonganingiz..(O‘tkan kunlar romani 54-bet)

2. Ochilmoq-yopilmoq. ... Kumush qiz vakili Muhammadrahim oralarida mahr masalasi **ochiladir**. ... tomdagi tomoshachi xotinlarg‘acha “omin”ga ko‘maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi **yopiladir**. (O‘tkan kunlar romani 64-65-betlar)

3. Ayblamoq-oqlamoq. ...mana faqirning Otabeklarni **ayblashim** va qarindoshlarni **oqlashim** xulosasi shundan iboratdir. (O‘tkan kunlar romani 101-bet)

XULOSA

Antonimlar tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular so‘zlarning ma‘nolarini boyitish va ifodalarni yanada kuchliroq qilishda yordam beradi. Ularning turlari va qo‘llanish kontekstlari tilni yanada rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, antonimlar tilshunoslikning ajralmas qismi bo‘lib, ularning o‘rganilishi tilni chuqurroq tushunishga va uning boyligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedova D. “Lingvistik tadqiqotlar”. – Toshkent, 2020.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
3. Karimova, N. “Semantika va leksikologiya”. – Toshkent, 2021.
3. Mo‘yidinov Q, Ikramov R. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2025.
4. Zokirov, I. “Qarama-qarshiliklar va ularning ifodalari”. – Buxoro, 2019.
5. G‘ulomov, M. “Til va mantiq”. – Samarqand, 2018.